

IQTISODIY RIVOJLANGAN DAVLATLARDA TA'LIM JARAYONINIG RIVOJLANISHI

O.F.Hamroyeva

FDU o'qituvchisi

F.A.Alijonova

Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada iqtisodiy rivojlangan davlatlar, hamda ularning ta'lim shakli, talim tizimi, ta'limdagi o'zgarishlar hamda ta'lim tarixi haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *«liberallashtirish», «demokratlashtirish», «1-Choson ta'lim buyrug'i», Songyungvan dehakke (성균관대학교) tomonidan berilgan, «sovonlar».*

Chet ellik talabalarga ta'lim berish bo'yicha AQSh dunyoda birinchi o'rinda turadi. Eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra AQShda chet ellik talabalarning umumiy soni 350 ming kishini tashkil qilib, ular mamlakatning 2500 dan ortiq o'quv yurtlarida tahsil oladilar. Talabalar asosan Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika,

Chet ellik talabalarning qabul qilinishiga asosan diplomatik tashkilotlar, madaniy missiya va boshqa tashkilotlar homiylik qiladilar. 67,8 foiz chet ellik talabalar ota-onalari hisobidan, 12,8 foizi esa o'z hukumati hisobidan o'qiydi. Ko'pchilik chet ellik talabalar doimiy yashash uchun AQShda qolib ketadilar. Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSh jahon mamlakatlari orasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizshsh firma, kontsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining mablag'lari tashkil qiladi. AQShdagi fundamental izlanishlarning bevosita ijrochisi oliy o'quv yurtlari, ularni mablag' bilan ta'minlab, ishlab chiqarishga tatbiq etuvchilar esa turli sanoat, qurilish va boshqa tashkilotlardir. Ishlab chiqarish korxonalari dorilfununlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, dorilfununlarning qariyb70 foiz ilmiy xodimlari turli firmalarda tadqiqotchi maslahatchi bo'lib ishlaydilar. Dorilfununning muayyan sohada tadqiqot olib borish uchun mo'ljallangan ilmiy xodimlari, ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy laboratoriyalariga boradilar.

AQSh ta'lim boshqaruv organlarida o'qituvchi kadrlarning sifat tarkibiga, uning insoniy kamolati, malakasi, o'z saviyasini takomillashtirib borishiga juda qat'iy talablar qo'yiladi.

Barcha shtatlar, Kolumbiya va Puerto-Riko okruglari boshlang'ich maktablarida ishlash uchun bakalavr malakasini talab qiladilar. O'rta

maktablardagi o'qituvchi kadrlarga esa 47 shtatda va Puerto-Rikoda eng kamida bakalavr va Kolumbiya okrugida 5 yil o'qituvchilik ta'limi yoki magistr darajasi kerak bo'ladi. Ko'pgina mahalliy maktablar o'qituvchiga shtatlar qo'ygan talablardan ham yuqori talablar qo'yadilar. Ba'zi maktablar o'qituvchidan hatto qo'shimcha o'z ish uslubini takomillashtirish saboqlarini olishlarini yoki har yili o'rgatuvchi kurslardan o'tishni talab qiladilar.

Ko'pgina jamoat, xususiy kollejlari o'qituvchi kadrlar tayyorlashga akkreditatsiya qilingan, moslashtirilgan. O'qituvchilar tayyorlash bo'yicha bu akkreditatsiyalar shtat, hududiy asotsiatsiya va milliy akkreditatsiya kengashlari tomonidan kafolatlangan. O'qituvchi kadrlar tayyorlash bo'yicha belgilangan dasturni o'rganish 4-5 yilga mo'ljallangan. Shu davr ichida bo'lajak o'qituvchilar o'zlari tanlagan asosiy predmetdan tashqari yana o'qituv metodikasi, ta'lim psixologiyasi, musiqa, san'atshunoslik kabi predmetlarni ham o'rganadilar.


Pedagogik amaliyot (praktika) 4 oydan 6 oygacha cho'ziladi. Ular maktab laboratoriyalarida yoki jamoa maktablaridan birida o'tkaziladi. Bitiruvchilar kollejning beshinchi kursini bitirish paytida magistr darajasini beruvchi kurs programmasini o'taydilar. Lekin shunga qaramay AQSh ta'lim tizimi o'zining bir qator nuqsonlariga ham ega.

Ta'limni «liberallashtirish», «demokratlashtirish» amalda pedagoglar uchun bilim puxtaligini nazorat qilish, talabchanlikni oshirish imkoniyatini bermaydi. Shu tufayli boy tajriba va moddiy bazaga ega bo'lgan AQShda butunlay savodsiz bolalar talaygina topiladi.

Ayrim hollarda AQSh ta'lim tizimidagi o'ta xilma-xillik funktsional savodsizlikni keltirib chiqarmoqda. Maktablardan va sinfdan tashqari muassasalar tizimi ham to'la shakllangan emas. Maktablar tarkibida turli to'garaklar bor, turli sayohat va tadbirlar amalga oshiriladi, lekin ular pullik bo'lmaganligi uchun hamma oilalar ham pulni to'lash imkoniyatiga ega emas. Umuman, oilalarning iqtisodiy imkoniyatlari, AQSh maktablari kundalik hayotida yaqqol ko'zga tashlanib turadigan holdir.

Koreyaning zamonaviy ta'lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan 1945 yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo'lsak, koreyslarda ta'lim tizimi 1894 yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan, deyish mumkin. 1881 yili Koreyadagi Choson xukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g'arbliklar harbiy san'atdan dars bera boshladilar.

Bu o'z navbatida chet tili va boshqa fanlar ta'limini yuzaga kelishini ta'minladi. Garchi 1882 yili maxsus qo'shin uchun darslar to'xtab qolgan bo'lsa-da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta-sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta'lim muassasalari ham vujudga kelib boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.



1894 yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta'lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895 yildan boshlang'ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900 yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan «Xususiy maktablar to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. 1910 yili Koreya va Yaponiya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponiyaning rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta'lim tizimini keskin o'zgartirish yo'lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo'yildi. Bu davrda 1911 yil 23 avgustda qabul qilingan «1-Choson ta'lim buyrug'i» amal qildi.

Unga ko'ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta'lim siyosati olib borildi. Ya'ni, maxalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang'ich ta'lim olar, o'rta va oliy ta'lim berilmas edi. Bu yapon mustamlakachiligining uzoq o'ylangan rejalari qatoriga kirardi. Ammo 1919 yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya xukumati biroz yon berishga majbur bo'ldi va buyruqqa o'zgartirish kiritib, boshlang'ich ta'lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922 yil 4 fevralda «2-Choson ta'lim buyrug'i» qabul qilindi. Bu buyruqqa ko'ra, ta'lim muddatlari uzaytirildi. Ya'ni, oddiy maktablarda ta'lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1924 yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi. O'sha yili Xitoy-Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi.

Oddiy maktablar va boshlang'ich maktablar, yuqori va o'rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi. 1943 yil 3 avgustda «4-Choson ta'lim buyrug'i» imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta'lim soxasidagi zo'ravonligi kuchaydi. Jumladan, o'rta va yuqori maktabalarda ta'lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fani dasturdan olib tashlandi. Uning o'rniga yapon tili darslari kiritildi. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944 yilgi Koreya umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945 yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreada tabiiyki boshqa soxalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo «Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi» tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981 yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan ta'qiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi.

1992 yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi.

Zamonaviy Koreya ta'lim tizimida boshlang'ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga xuquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. O'quv yili esa 1 mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestrga bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limdan keyingi «zinapoya» vazifasini o'rta ta'lim bajaradi. O'rta ta'lim Koreya respublikasida 3 yil davom etadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1 martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O'rta maktab tugatilgach yuqori maktablarda ta'lim davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi.

Janubiy Koreyada yaxshi ta'lim olish har qanday koreysning muvaffaqiyatli martabasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuning uchun nufuzli ta'lim muassasasiga kirish vazifasiga ustuvor ahamiyat beriladi va kirish imtihonlarini topshirish jarayoni juda og'ir bo'lishi mumkin. Koreya davlat ma'muriy organlari bolaning dastlabki yillaridan to o'rta maktabdagi so'nggi yiligacha butun o'quv jarayonini aniq shakllantiradi va nazorat qiladi. Matematikaga, koreys va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat fanlariga ustunlik beriladi. Jismoniy tarbiya shunga o'xshash e'tiborga ega emas, chunki u ta'lim mavzusi deb hisoblanmaydi, natijada ko'plab maktablarda tegishli sport anjomlari yo'q. Janubiy Koreya boshlang'ich maktablardan universitetlargacha bo'lgan barcha ta'lim muassasalarida yuqori tezlikdagi Internetga kirishni

ta'minlagan birinchi mamlakat bo'ldi .O'quv yili ikki semestrda bo'lingan. Birinchisi mart oyida boshlanadi va iyul o'rtalarida tugaydi; ikkinchisi avgust oyining oxirida boshlanadi va fevral o'rtalarida tugaydi. Yozgi ta'til iyul oyining oxiridan avgust oyining oxirigacha, qishki ta'til esa dekabr oyining oxiridan fevral oyining boshigacha davom etadi va bundan tashqari, fevral oyining o'rtalaridan oxirigacha qisqa dam olish kunlari ham mavjud. O'quv dasturi qat'iy tartibga solinmagan va har bir muassasada boshqasiga farq qilishi mumkin.

Konfutsiy merosiga ega bo'lgan boshqa Sharqiy Osiyo mamlakatlari singari, Janubiy Koreya ham rasmiy ta'lim tizimining uzoq tarixiga ega. Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan boshlang'ich ta'lim tizimi mavjud emasligiga qaramay, hukumat Xoseon sulolasi davrida Seul va viloyatlarda maktablar tizimini o'rnatdi. Bunday maktablar taqdim etilgan ta'lim sifatida ba'zi kamchiliklarni boshdan kechirdilar va XVI asrda ular muhim ahamiyatga ega bo'lgan akademiyalar — „sovonlar“, Neo-Konfutsiy uyg'onish markazlari bilan almashtirildi. Ham xususiy, ham davlat maktablari talabalari harbiy xizmatdan ozod qilindi va bugungi kunda talabalar foydalanadigan ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishdi. Va ikkinchisi singari, ular siyosatda ishtirok etishdi. Oliy ma'lumot poytaxtda Konfutsiy Milliy universiteti Songyungvan deha (성균관대학교) tomonidan berilgan. U erga yiliga 200 talaba kirishi mumkin edi, ular fuqarolik majburiyatlarining eng past imtihonidan oldin va keyingi imtihonlarga tayyor edilar. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida koreyslarning o'zlari va nasroniy missionerlari tomonidan xususiy maktablar tashkil etildi. Ikkinchisining roli ayniqsa muhimdir, chunki ular ayollarning ta'lim olishini targ'ib qildilar va G'arbning ijtimoiy va siyosiy g'oyalarini tarqatdilar. 1910-yildan keyingi yapon ta'lim siyosati Koreyani itoatkor mustamlakaga aylantirishga qaratilgan edi, shuning uchun asosan texnik ko'nikmalarni ishlab chiqish va boshqalar uchun javobgar edi. Ko'pchilik Janubiy Koreyaning iqtisodiyot va texnologiyadagi yutuqlari „inson resursiga“ mohirona sarmoya kiritishning natijasi ekanligiga qo'shiladilar. Konfutsiy davridan beri saqlanib kelinayotgan bilim odamga an'anaviy ijtimoiy hurmat bugungi kungacha saqlanib qolgan va bugungi kunda olimlar va turli texnik kasb egalari ham undan foydalanmoqdalar. 1960-yillardan beri mamlakatni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan yuqori ma'lumotli texnokratlar va iqtisodchilar iqtisodiy rivojlanishdagi sakrashni deyarli o'zlariga bog'lashlari mumkin. Ilmiy kasblar 1980-yillardan beri Janubiy Koreyada eng obro'li hisoblanadi. Janubiy Koreya milliy ta'lim dasturining yutuqlari statistik jihatdan tasdiqlangan. 1945-yilda fuqarolarning 22 foizi savodli edi; 1970-yilga kelib — 87,6%, 1980-yillarning oxirida-93%. Janubiy koreyalik talabalar matematika va aniq fanlar bo'yicha xalqaro musobaqalarda yaxshi natijalarga erishmoqdalar. Faqatgina boshlang'ich ta'lim (6-sinf gacha) majburiy bo'lgan bo'lsada, ta'limning yuqori darajalaridagi o'quvchilarning ulushi rivojlangan

mamlakatlarda, shu jumladan Yaponiyada ham shunga o'xshash ko'rsatkichlar bilan taqqoslandi. Taxminan 4,8 million o'quvchi 1985-yilda boshlang'ich maktabga o'qishga kirgan. O'sha paytda ikkinchi darajali maktabda majburiy bo'lmagan ta'limni davom ettirganlarning ulushi 99% dan oshdi. Talabalarning taxminan 34% universitetlarda imtihonlarni topshirdilar, bu Yaponiya ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi (30%) va Britaniya reytingidan yuqori (20%). Ta'lim ehtiyojlari uchun davlat xarajatlari juda ta'sirli. 1975 yilda ular 220 milliard vonni tashkil etdi, bu YIMning 2,2 foiziga yoki umumiy byudjetning 13,9 foiziga to'g'ri keladi. Va 1986 yilda bu allaqachon 3,76 trillion von yoki YIMning 4,5 foizi va byudjetning 27,3 foizi edi.

Koreya ta'lim tizimi: Yuklab olish, bo'lishish, chop etish

Oddiy ta'lim tizimi: Koreyada ta'lim jarayoni quyidagicha tashkil topgan: boshlang'ich maktab 6 yil, o'rta maktab 3 yil, yuqori maktab 4 yil, universitet va institut 4 yil (kasb hunar kolleji 2 yil). Boshlang'ich maktab 6 yil va o'rta maktab 3 yil majburiy ta'lim bo'lib, bunda bepul o'qitiladi.

Ta'lim jarayonini boshqarish

Koreyada o'quv yili ikki semestrga bo'lingandir. Birinchi semestr 1-martdan maktab direktori tomonidan belgilangan kunlar, ta'tillar va o'quv rejasini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Ikkinchi semestr birinchi semestrning oxirgi kundan keyingi kundan boshlanadi va keyingi yilning fevral oyining oxirgi kunda tugaydi. Umumiy qilib aytganda, birinchi semestr mart oyining boshlarida, ikkinchi semestr esa avgust oyining oxirlaridava sentabr oyining boshlarida boshlanadi. Boshlang'ich, o'rta va yuqori maktab o'quv yili dasturi quyidagi ikki bo'limga bo'linadi: standart o'quv dasturi va o'z tashabbusiga ko'ra ijodiy o'quv mashg'ulotlari kiritilgan dastur.

Multi-madaniyatli o'quvchilar ta'limiga ko'mak berish

Koreys ta'limi (Koreya ta'limiga tashrif)

Yaqinda kelgan muhojirlar va koreys tilini yaxshi bilmaydigan chet ellik o'quvchilarga (yoki maktabgacha yoshdagi bolalarga) koreys tili darslarini ta'minlash bo'yicha koreys tili va madaniyati ta'limini qo'llab-quvvatlash uchun bolalar bog'chalari, boshlang'ich, o'rta va yuqori maktablarda koreys tili sinflari ochiladi. Mamlakat bo'ylab 291 ta maktabda 444 ta koreys tili darslari mavjud (2022 yil holatiga ko'ra) va agar farzandingiz maktabida koreys tili darslari o'tkazilmasa, koreys tilini o'qitish uchun "Tashrif asosida koreys tilini o'qitish" orqali yordam olish mumkin.

Xulosa: Men bu maqoladan shunday xulosa qildimki: Biz bilamizki har bitta jahon mamlakatlarining ta'lim tizimida yillik rivojlanish ko'rsatkichi. Har bitta davlatni o'ziga yarasha iqtisodiy tomonlama rivojlangan taraflari mavjudir. Men bu maqolada hozirda iqtisodiy hamda har tomonlama rivojlangan davlatlar qatoriga kirgan Janubiy Karea hamda Amerika Qoshma Shtatlarini ta'lim shakli

hamda undagi so'ngi yillardagi o'zgarishlari haqida va tarixi haqida o'zim uchun judayam ko'p hamda kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). **OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI.** *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). **OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.** *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 985-991.
3. Abdixakimovich, X. K. (2023). **PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH.** *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 538-541.
4. Ergasheva, N. M. (2023). **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI.** *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 697-702.
5. Maxmudova, X. T. (2022). **TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY FANLARNI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI**, 1(12), 826-830.
6. Toshtemirovna, M. K. (2023). **OBSTETRIC TACTICS DURING COVID-19 DISEASE.** *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 366-368.
7. Normatova, S. (2020). **DEVELOPMENT OF AN EFFECTIVE SYSTEM FOR ELIMINATION OF RISK FACTORS IN MILK PRODUCTION ENTERPRISES.** *JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS*.
8. Mamatqulova, S. A. (2023). **FICUS CARICA O'SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI.** *Scientific Impulse*, 1(9), 1825-1827.
9. Mamatqulova, S. A., Maxsudova, G. M., & Usmanova, T. E. (2023). **O'ZBEKISTONDAGI IQLIMLASHTIRILGAN AYRIM MANZARALI O'SIMLIKLARINING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI.** *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 20(5), 146-150.
10. Дехканов, Р. С., Абдуллаев, Ш. В., Маматкулова, С. А., & Салойидинова, М. К. К. (2023). **ИЗУЧЕНИЕ АМИНОКИСЛОТНОГО СОСТАВА И БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЛИЗОЦИМА ВЫДЕЛЕННОГО ИЗ МАРГЕЛАНСКОЙ РЕДКИ.** *Research Focus*, 2(1), 57-61.